



UO'K: 633,842+631+635

TAKRORIY MUDDATDA SHIRIN QALAMPIR YETISHTIRISHDA FENOLOGIK KO'RSATKICHLARIGA SUG'ORISH TARTIBOTI VA O'G'ITLASH ME'YORINING TA'SIRI

Rasulov Faxriddin Faxmuddinovich 

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti institut
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

Annotatsiya. Ushbu maqolada takroriy muddatda shirin qalampir yetishtirishda fenologik ko'rsatkichlariga sug'orish tartibotini va o'g'itlash me'yorini mahalliy Dar Tashkenta va Zarya Vostoka navlari misolida ta'sirini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: nav, o'g'itlash, sug'orish, sug'orish tartiboti, fenologik ko'rsatkichlar.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования по определению влияния режима полива и нормы внесения удобрений на фенологические показатели при выращивании как повторная культура сладкого перца на примере местных сортов «Дар Ташкента» и «Заря Востока».

Ключевые слова: сорт, удобрение, орошение, процедура орошения, фенологические показатели

Annotation. In this state, the results of the study of the determination of influence on the regime of irrigation and the application of fertilizers and phenological indicators for the reproduction of sweet pepper culture in the first local varieties "Dar Tashkenta" and "Zarya Vostoka" are presented.

Keywords: variety, fertilizer, irrigation, irrigation procedure, phenological indicators

KIRISH

Shirin qalampir yengil, qumoq, strukturali organik va mineral moddalarga boy tuproqlarda yaxshi o'sib, rivojlanadi. Unga kam kislotali tuproqlar 5,4-6,8 pH ko'rsatkichi maqbul hisoblanadi. Ushbu ekin tuproqdan ko'p miqdori oziqa moddalarni oladi. Hosildorlik gektariga 10 t bo'lganda shirin qalampir tuproqdan 35 kg azot, 10 kg fosfor va 45 kg kaliyni oladi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Tuproqdagi oziqa moddalardan foydalanish koeffitsienti qalampir uchun 25% azot, 10% fosfor va kaliyniki 29% ga teng. O'g'itlardagi oziqa moddalardan foydalanish koeffitsienti: azot – 55%, fosfor – 18% va kaliy – 65% teng.

Mevalarni shakllantirguncha o'rtacha sutkalik suv sarfi shirin qalampir uchun 40-55 m³, yoppasiga meva tugayotganda 60-65 m³ va mevalashning oxirida 40-45 m³ ga ni tashkil qiladi. O'sish davrida 0-50 sm tuproq qatlamidagi sug'orishdan oldingi tuproq namligi to'yingan dala nam sig'imiga nisbatan 80% bo'lganda u maqbul hisoblanadi (5).

Shirin qalampir uchun eng maqbul oziqlanish me'yorlarini aniqlashda Ye.S. Karataev, V.E. Sovetskina (1984) lar ushbu ekinni tuproq unumdorligiga talabchan ekin ekanligini inobatga olib, o'simlik xazm qiladigan fosfor va kaliy o'g'itlarini tuproqda ko'p bo'lishi lozimligini, tuproq unumdorligiga qarab bir gektar yerga 150-200 kg ammiakali selitra, 300-400 kg superfosfat va 200-300 kg xlorli kaliy tuzi solishni tavsiya qilganlar. Shuningdek ular shirin qalampir mineral o'g'it bilan oziqlantirishga xozirjavob ekin ekanligini takidlab, ko'chat ekilgandan 7-10 kundan keyin birinchi marta oziqlantiriladi: bir gektar yerga 50-60 kg amiakli selitra, 100-150 kg superfosfat va 60-100 kg xlorli kaliy; ikkinchi marta – yoppasiga gullaganda: 50-60 kg amiakli selitra va uchinchi marta – yoppasiga meva tugayotgan – davrda: bir gektar yerga 60-100 kg xlorli kaliy solish lozimligini o'z maqollarida keltirib o'tganlar [4].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlar Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi (Azimov B.J., Azimov B.B., 2002), Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве (Белик В.Ф., 1992), Методика полевого опыта (Dospexov B.A., 1985) va boshqa uslublar asosida olib borildi (1,2,3).

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tajribada shirin qalampir egatlab sug'orish usulida sug'orildi. Bunda uchta sug'orish tartiboti qo'llanildi: CHDNSN 70-80-70% nazorat, 70-80-80 va 80-80-70%. Shu bilan birga uchalla sug'orish tartiboti 4 hil oziqlantirish me'yori N₀P₀K₀ absolyut nazorat, 25t.go'ng+N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ nazorat, 25t.go'ng+N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅, 25t.go'ng+N₁₅₀P₁₀₅K₇₅ bilan birgalikda hamda 2 ta mahalliy Dar Tashkenta va Zarya Vostoka navlarida olib borildi.

Shirin qalampir o'simligining ko'chati ekilib to o'simlik gullay boshlagunga qadar sug'orish uchun hisobiy qatlam 0-30 sm va keyingi bosqichlarda to o'suv davrining oxirigacha 0-50 sm qatlam sug'orildi.

Shirin qalampirning Dar Tashkenta va Zarya Vostoka navlari ko'chatlari isitilmaydigan ochiq maydondagi ko'chatxonada yetishtirildi. Urug'lar ko'chatxonaga 10 may kuni sepildi. 45 kunlik shirin qalampir ko'chatlari xar yili 1-iyul kuni asosiy maydonga ekildi. Tajribaning birinchi nazorat variantida ya'ni ChDNS buyicha 70-80-70% da sug'orilgan va 25t/go'ng +N₂₀₀P₁₄₀K₁₀₀ me'yorda





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

oziqlantirilganda Dar Tashkenta navi yalpi gullashi uchun 75 kun talab etilgan bo'lsa, Zarya Vostoka navi 77 kunda gulladi (1-jadval).

1-jadval.

Shirin qalampirning fenologik ko'rsatkichlariga sug'orish tartibotiva o'g'itlash me'yoring ta'siri

Variant	Tuproq namligi ChDSN nisbatan,%,	O'g'itlash me'yori so'f holda, kg/ga	Nav nomi	Yoppasiga unib chiqqanidan, kun					
				gullaguncha		meva tugish davri		meva texnik pishishi	
				10%	75%	10%	75%	10%	75%
1.	70-80-70 nazorat	Ab/nazorat. N ₀ P ₀ K ₀	Dar Tashkenta	78	84	86	94	115	120
			Zarya Vostoka	81	86	87	96	116	124
		25t.go'ng+ N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ n	Dar Tashkenta	69	75	76	82	106	112
			Zarya Vostoka	71	77	79	88	108	114
		25t.go'ng+ N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	Dar Tashkenta	65	72	74	80	104	110
			Zarya Vostoka	68	75	76	83	106	112
		25t.go'ng+ N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	Dar Tashkenta	74	82	83	90	112	120
			Zarya Vostoka	76	84	84	94	109	122
2.	70-80-80	Ab/nazorat. N ₀ P ₀ K ₀	Dar Tashkenta	77	85	86	92	114	119
			Zarya Vostoka	81	86	88	95	115	122
		25t.go'ng+ N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ n	Dar Tashkenta	68	74	76	80	104	112
			Zarya Vostoka	69	76	78	87	104	112
		25t.go'ng+ N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	Dar Tashkenta	65	72	73	79	103	112
			Zarya Vostoka	67	74	75	82	104	110
		25t.go'ng+ N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	Dar Tashkenta	74	80	82	88	110	116
			Zarya Vostoka	75	82	84	94	109	120
3.	80-80-70	Ab/nazorat. N ₀ P ₀ K ₀	Dar Tashkenta	76	81	83	90	110	118
			Zarya Vostoka	77	83	84	94	112	120
		25t.go'ng+ N ₂₀₀ P ₁₄₀ K ₁₀₀ n	Dar Tashkenta	66	72	75	80	102	108
			Zarya Vostoka	67	72	76	85	102	110
		25t.go'ng+ N ₂₅₀ P ₁₇₅ K ₁₂₅	Dar Tashkenta	63	70	72	78	100	106
			Zarya Vostoka	65	71	74	80	102	108
		25t.go'ng+ N ₁₅₀ P ₁₀₅ K ₇₅	Dar Tashkenta	70	76	77	85	105	112
			Zarya Vostoka	72	77	80	89	106	115

Shu variantning ikkinchi tajribasida o'simlik 25t/go'ng+N₂₅₀P₁₇₅K₁₂₅ bilan oziqlantirilganda ko'chatlar 2-3 kunga avval gulladi, ya'ni Dar Tashkenta navi 72 va Zarya Vostoka navi 75 kunda gulladi. Ushbu tajribaning uchinchi variantida ko'chatlarni gullashi birinchi variantga nisbatan Dar Tashkenta va Zarya Vostoka navlarida 25t/go'ng+N₂₀₀P₁₅₀K₁₀₀ me'yorda oziqlantirilganda 2 kun oldin sodir bo'ldi. 25t/go'ng+N₂₅₀P₁₅₀K₁₂₅ bilan oziqlantirilganda esa Dar Tashkenta navi 5 kun Zarya Vostoka navi 4 kun ilgariroq gulladi. Ikkala navning barvaqt meva tugishi xam 3-variant 25t/go'ng+N₂₅₀P₁₅₀K₁₂₅ oziqlantirish me'yorida kuzatilib Dar Tashkenta



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

navida 78 kunni, Zarya Vostoka navida 80 kunni tashkil etdi. Shirin qalampirni sug'orish tartiboti o'simlikni o'sishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini sezilarli darajada ko'rsatdi.

Yoppasiga unib chiqqanidan to mevalar yoppasiga texnik pishishi nazorat variantida 70-80-70%da sug'orilgan va $N_{200}P_{140}K_{100}(+25t/go'ng)$ me'yorda oziqlantirilganda Dar Tashkenta navi 112 kunni, Zarya Vostoka navida 114 kunni tashkil etdi, shu variantning uchinchi tajribasida o'simlik $25t/go'ng+N_{250}P_{175}K_{125}$ bilan oziqlantirilganda meva texnik pishishi Dar Tashkenta navida 110 kunni va Zarya Vostoka navida 112 kunni tashkil etdi. Tajribaning uchinchi variantida nazoratga nisbatan Dar Tashkenta va Zarya Vostoka navlarida $25t/go'ng+N_{200}P_{150}K_{100}$ me'yorda oziqlantirilganda 4-6 kunga ertaroq, $25t/go'ng+N_{250}P_{150}K_{125}$ bilan oziqlantirilganda esa Dar Tashkenta va Zarya Vostoka navlarida 106-108 kunni tashkil etdi.

XULOSA

Takroriy muddatda shirin qalampir yetishtirishda sug'orish tartiboti va o'g'itlash me'yorlarining fenologik ko'rsatkichlarga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi ushbu agrotexnik omillarga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Tajribada qo'llanilgan sug'orish tartibotlari va oziqlantirish me'yorlari shirin qalampirning gullash, meva tugish hamda texnik pishish muddatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Dar Tashkenta va Zarya Vostoka navlarida eng qisqa fenologik davrlar CHDNSN bo'yicha 80-80-70 % sug'orish tartibotida hamda 25 t/ga go'ng + $N_{250}P_{175}K_{125}$ me'yorida o'g'itlanganda kuzatildi. Mazkur variantda o'simliklarning gullashi, meva tugishi va texnik pishishi boshqa variantlarga nisbatan 4-8 kun ertaroq sodir bo'ldi. Ayniqsa, Dar Tashkenta navida yoppasiga gullash 70 kunda, mevalarning texnik pishishi esa 106 kunda kuzatilib, eng yuqori tezkor rivojlanish qayd etildi.

Absolyut nazorat variantlarida (NOPOKO) esa fenologik jarayonlar kechikib, gullash va mevalarning texnik pishishi eng uzoq muddatda amalga oshdi. Bu holat shirin qalampirning oziqa moddalar bilan yetarli ta'minlanishi uning biologik rivojlanishini jadallashtirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, takroriy ekin sifatida shirin qalampir yetishtirishda Dar Tashkenta va Zarya Vostoka navlari uchun CHDNSN 80-80-70 % sug'orish tartiboti hamda 25 t/ga go'ng bilan birgalikda $N_{250}P_{175}K_{125}$ me'yorida mineral o'g'it qo'llash fenologik jarayonlarning tezlashishini ta'minlab, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun eng maqbul agrotexnik sharoit yaratishi tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Azimov B.J., Azimov B.B. «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi».-T. O'ME. 2002. 9-11 BB.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

2. Белика В.Ф. «Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве». //М., ВО Агропромиздат. 1992. с 30-45.
3. Доспехов Б.А. «Методика полевого опыта». М «Колос». 1973.с 155-180.
4. Каратаев Е.С., Советкина В.Э. Перес. Учебник Овощеводство. Москва «Колос» 1984 с. 206-209.
5. Shirin qalampir 100 kitob to'plami 23 kitob © "Agrobank" ATB – 2021, © Nashriyot uyi "Tasvir" – 2021 15-16 BB.